



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA TA'LIM VAZIRLIGI HAY'ATI MAJLISINING BAYONI

2021-yil 5 - oktabr

7 -son

Toshkent sh.

Raislik qiluvchi: A.V.Shin – Maktabgacha ta'lif vaziri

Ishtirok etdilar: Hay'at a'zolari, vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari rahbarlari va mas'ul xodimlar (*ro'yxat bo'yicha*).

KUN TARTIBI:

Maktabgacha ta'lif vaziri o'rindbosarlarining 2021-yil II yarim yilligi uchun faoliyati samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishishlarini baholashning asosiy mezonlaridan kelib chiqqan holda 2021-yil III chorak yakuni bo'yicha erishilgan natijalar to'g'risida.

(Shin, Onorboyev, Begimkulov, Muslitdinov,..., Shin)

Mamlakatimiz taraqqiyotining zamonaviy bosqichida yangi O'zbekistonni barpo etish uchun amalga oshirilayotgan shiddatli va keng ko'lamli islohotlar jarayonida mamlakatimiz oldida turgan ustuvor, strategik va dolzarb vazifalarni tezkor hal qilishda vazirliklar, davlat qo'mitalari, davlat boshqaruvinining boshqa organlari va xo'jalik birlashmalari rahbarlari o'rindbosarlarining shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini oshirish, vazifalari va vakolatlarini aniq belgilash, shuningdek, ularning faoliyati samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishilishining asosiy mezonlari orqali baholashning yangi tizimini joriy etish maqsadida 2021-yil 22-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Vazirliklar, davlat qo'mitalari, davlat boshqaruvinining boshqa organlari va xo'jalik birlashmalari rahbarlari o'rindbosarlarining faoliyati samaradorligini baholash tizimini joriy etish to'g'risida" PQ-5189-son qarori qabul qilindi.

Shuningdek, davlat boshqaruvinining va xo'jalik birlashmalari rahbarlari o'rindbosarlarining faoliyati samaradorligini baholash tizimini joriy etish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Vazirliklar, davlat qo'mitalari, davlat boshqaruvinining boshqa organlari va xo'jalik birlashmalari rahbarlari

o'rribosarlarining faoliyati samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishishlarini baholashning asosiy mezonlarini tasdiqlash to'g'risida" 2021-yil 28-iyuldag'i 467-son qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-iyuldag'i PQ-5189-son qarori va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-iyuldag'i 467-son qarori talablariga muvofiq maktabgacha ta'lif vaziri o'rribosarlarining 2021-yil II yarim yilligida faoliyati samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishishlarini baholashning asosiy ko'rsatkichlari ishlab chiqilib, Maktabgacha ta'lif vazirligi Hay'at majlisining 2021-yil 25-avgustdag'i 6-son bayoni bilan tasdiqlandi.

**Maktabgacha ta'lif vazirining birinchi o'rribosari
B.O.Onorboyevning faoliyati samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga
erishishlarini baholashning asosiy mezonlari bo'yicha III chorakda quyidagi
ishlar amalga oshirildi:**

1. Hududlarda maktabgacha ta'lif tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish yo'nalishida.

2021-yil III chorak yakuniga ko'ra 3-7 yoshli bolalarning umumiy sonidan (2,8 mln.) 1 829 328 nafar bola yoki maktabgacha yoshdagi aholining 64,9 foizi maktabgacha ta'lif bilan qamrab olindi (2021-yil 1-iyul holatiga 62,4 foiz).

6 yoshdagi 702 281 nafar bolalarning 541 799 nafari yoki 77,1 foizi maktabgacha ta'lif bilan qamrab olindi (2021-yil 1-iyul holatiga 73,3 foiz).

2. Maktabgacha ta'lif tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining sog'lom va to'g'ri ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat maktabgacha ta'lif tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirish tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 30-iyuldag'i 407-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida vazirlik tomonidan autsorsing usulida xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning tanlov orqali tanlab olish ishlari yakunlandi va 115 nafar tadbirkor bilan shartnomalar imzolash jarayoni davom etmoqda.

Bugungi kunda Respublika bo'yicha 434 nafar autsorsing usulida xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik subektlari faoliyat olib bormoqda.

Joriy yilning IV choragida autsorsing tizimi joriy qilinmagan davlat maktabgacha ta'lif tashkilotlarida joriy yil oktyabr oyidan tarbiyalanuvchilarni sog'lom va xavfsiz ovqatlantirish uchun ochiq tanlov jarayonlari davom ettiriladi.

3. Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish hamda ularning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish bo'yicha profilaktika chora-tadbirlarini amalga oshirish yo'nalishida.

Respublikadagi 6 382 ta davlat maktabgacha ta'lif tashkilotlarida 1 230 033 nafar bola tarbiyalanmoqda. Joriy yilning III choragida 328 963 nafar tarbiyalanuvchilar davlat maktabgacha ta'lif tashkilotlarida chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazildi va kasalliklarning oldini olish bo'yicha tavsiyalar va yo'llanmalar berildi.

Joriy yilning IV choragida yana shuncha tarbiyalanuvchilar tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

4. Davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat mактабгача та’лим ташкilotlari tarmog‘ini rivojlantirish bo‘yicha.

2021-yilning III choragi mobaynida 1640 o‘ringa mo‘ljallangan 17 ta DXSH loyihalari hamda 41000 o‘ringa mo‘ljallangan 1657 ta oilaviy MTTlar o‘z faoliyatini boshladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qamrov darajasi past bo‘lgan tumanlarda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 10-iyundagi PQ-5144-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan 54 825 quvvatga ega 2 023 ta oilaviy hamda 5 700 o‘ringa mo‘ljallangan 64 ta DXSh asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish yuzasidan bitimlar imzolandi.

5. “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali topshiriq va vazifalar ijrosini ta’minalash bo‘yicha 3-chorakda ijrosi ta’milanishi lozim bo‘lgan jami 22 ta topshiriq 100% ga bajarildi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 3 ta qarorida belgilangan 18 ta topshiriq, shundan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-iyundagi PQ-5144-son qarorida belgilangan 15 ta topshiriq ijrosi ta’minaldi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil Namangan viloyatiga tashrifi davomida berilgan 1 ta topshiriq va Prezident huzurida o‘tkazilgan yig‘ilish bayonlarida belgilangan 3 ta topshiriq ijrosi to‘liq ta’minaldi.

Maktabgacha ta’lim vaziri o‘rinbosari U.Sh.Begimkulovning faoliyati samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishishlarini baholashning asosiy mezonlari bo‘yicha III chorakda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1. Maktabgacha ta’lim tizimiga zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta’lim va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini o‘quv-tarbiya jarayoniga joriy etish maqsadida 2021-yil 3-chorakda maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun jami 32 nomdagi o‘quv-metodik qo‘llanmalar, didaktik va tarqatma materiallar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari, “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim tashkilotining davlat o‘quv dasturi, “Ilm yo‘li” variativ dasturi, 11 nomdagi uslubiy qo‘llanmalar, 5 nomdagi badiiy asarlar, 6 nomdagi didaktik to‘plamlar, 5 nomdagi didaktik o‘yinlar to‘plamlari, ish daftarlari nashrga tayyorlandi.

2. Davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan jami pedagoglar soni 2021-yil 3-chorak holatiga 127 219 nafarni tashkil etib, ta’lim-tarbiya jarayoniga jami 3108 nafar oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini jalb qilish orqali oliy ma’lumotli pedagoglar 43565 nafarni (34,2%) tashkil etdi (2021-yil 2-choragida jami pedagoglar soni 125 944 nafarni, shundan oliy ma’lumotli pedagoglar 39 970 nafarni yoki 31,7 foizni tashkil etgan).

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jami pedagoglar 104 508 nafar, shundan oliy ma'lumotli pedagoglar 43565 nafarni (41,6%), nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jami pedagoglar 22 711 nafar, shundan oliy ma'lumotli pedagoglar 6 370 nafarni (28%) tashkil etadi.

3. Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan 2021-yilda jami 14 029 nafar maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va pedagog kadrlarining malakasini oshirish rejalashtirilgan.

Shundan 6 492 nafari Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida, 6 312 nafari Xalq ta'limi hududiy malaka oshirish va qayta tayyorlash markazlarida, 1 225 nafari Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti va filiallarida malaka oshirishi belgilangan.

2021-yil yanvar-sentabr oylarida malaka oshirish kurslaridan o'tgan pedagog kadrlar soni jami 9722 nafar (rejaga nisbatan 100,7 %), shundan I chorakda 4155 nafar (100,7%), II chorakda 4229 nafar (100,8 %)ni tashkil etdi.

III chorakda 1331 nafar rahbar va pedagog kadrlarni malasini oshirish rejalashtirilgan bo'lib, amalda 1523 nafar (114,4%) pedagoglarning malakasi oshirildi. Shundan, 185 nafari nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglaridir.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-iyundagi PQ-5144-son qaroriga muvofiq joriy yil avgust-sentabr oylarida 6 061 nafar oilaviy va davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagolar uchun qisqa muddatli o'quv kurslar tashkil etildi.

4. Maktabgacha ta'lim sohasiga xorijiy investitsiyalarini jalb etish bo'yicha Maktabgacha ta'lim vazirligi va "Mercy Corps" xalqaro nodavlat tashkiloti o'rtasida umumiy qiymati 21,7 mln. AQSh dollarga teng bo'lган "Ta'lim uchun oziq-ovqat" loyihasini amalga oshirish bo'yicha anglashuv memorandumi imzolandi.

Joriy yilning 24-25-sentabr kunlarida Tojikiston Respublikasi tomonidan Farg'ona viloyati Rishton tumanida "Kapalak" davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining ochilish marosimini tashkillashtirildi. Bunda Tojikiston Respublikasi Ta'lim va fan vazirining O'zbekistonga tashrifi bo'yicha tegishli vazirlik va idoralaralar hamda mahaliy hokimiyat bilan muvofiqlashtirish ishlari amalga oshirildi.

Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan Investitsiya dasturi doirasida (PQ-4937-son) 2021-yilning 9 oyi davomida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi 2 ta loyiha bo'yicha 8 mln AQSH dollarari (LUKOIL korxonasi ishtirokidagi loyiha) va 2,2 mln AQSH dollarari (Jahon banki loyihasi) o'zlashtirildi.

Shuningdek, 2020-yilda Saudiya taraqqiyot jamg'armasi bilan qiymati 10,9 mln AQSH dollariga teng bo'lган "Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini yaratish" loyihasi amalga oshirish bo'yicha kelishuvga erishildi.

Mazkur loyiha doirasida 40 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlari DXSH asosida yaratilishi ko'zda tutilgan. Loyihani amalga oshirish to'g'risida Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyuldagagi 416-sodan qarori qabul qilindi.

Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) tomonidan maktabgacha ta'lim sohasidagi 21 ta pedagog kadrlar malakasini oshirish bo'yicha joriy yilning iyul oyida qisqa muddatli kurslar tashkil etildi.

Maktabgacha ta'lim sohasini yanada rivojlantirish va davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat MTT tarmog'ini kengaytirish maqsadida vazirlik tomonidan Islom taraqqiyot banki bilan umumiy qiymati 30 mln AQSH dollariga teng bo'lgan loyihani amalga oshirish bo'yicha muzokaralar olib borilmoqda.

O'tgan davr davomida Maktabgacha ta'lim vazirligi va Rossiyaning Maorif vazirligi o'rtasida "Mittivoy" loyihasini amalga oshirish bo'yicha anglashuv memorandumi loyihasi ishlab chiqildi. Mazkur memorandum joriy yilning so'ngida rejorashtirilayotgan 2-O'zbek-Rossiya ta'lim forumida imzolanishi kutilmoqda.

5. "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali topshiriq va vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha 3-chorakda ijrosi ta'minlanishi lozim bo'lgan jami 38 ta topshiriq 100% ga bajarildi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2 ta Farmonida belgilangan 2 ta topshiriq, 8 ta qarorda belgilangan 31 ta topshiriq, shundan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-iyundagi PQ-5144-sodan qarorida belgilangan 16 ta topshiriq ijrosi ta'minlandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil Andijon viloyatiga tashrifi davomida berilgan 2 ta topshiriq va Prezident huzurida o'tkazilgan yig'ilish bayonlarida belgilangan 3 ta topshiriq ijrosi to'liq ta'minlandi.

Maktabgacha ta'lim vaziri o'rinnibosari N.X.Muslitdinovning faoliyatini samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishishlarini baholashning asosiy mezonlari bo'yicha III chorakda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari bino va inshootlarini qurish, ta'mirlash, tiklash, joriy saqlash, shuningdek, ularni kuz-qish mavsumiga tayyorlash ishlarini tashkil etish bo'yicha.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 576-sodan qaroriga asosan joriy yilda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga 87,8 ming tonna ko'mir mahsulotlari ajratilgan. 2021-yil 3-chorak uchun belgilangan rejaga nisbatan amalda 88,6 ming tonna (100,4%) ko'mir mahsuloti maktabgacha ta'lim tashkilotlariga yetkazib berildi.

2021/2022-yillar kuz-qish mavsumiga tayyoragarlik ko'rish maqsadida 3-chorak mobaynida respublikadagi 829 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlarni joriy ta'mirlash rejorashtirilgan bo'lib, amalda 736 tasida (88,8%) joriy ta'mirlash ishlari yakunlandi. Ushbu maqsadlar uchun 3-chorakda 154,0 mlrd. so'm mablag' ajratish rejorashtirilib, amalda 130,1 mlrd. so'm 84,5% mablag'lar moliyalashtirildi.

2021-yil 3-chorak davomida jami 300 ta qozonlarni almashtirish rejalashtirilgan bo'lib, amalda 318 ta (106,0%) ta'mirtalab qozonlar hamda burjuyka pechlar zamonaviy isitish qozonlariga almashtirildi.

2. Davlat muktabgacha ta'lif tashkilotlarining ehtiyojlarini aniqlash va har yili ularni jihozlash (qayta jihozlash) bo'yicha.

2021-yilda davlat muktabgacha ta'lif tashkilotlarini zamonaviy mebel va jihozlar bilan ta'minlash uchun umumiy qiymati 78,2 mlrd. so'mga tender savdolari o'tkazildi. Tender savdolari natijalariga ko'ra, 129 ta davlat muktabgacha ta'lif tashkilotlariga (18 750 o'rinni) 47,3 mlrd. (mebel jihozlari bo'yicha 38,6 mlrd., tekstil mahsulotlari bo'yicha 3,0 mlrd., oshxonalar bo'yicha 5,7 mlrd.) va "Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimi bo'yicha 1 676 ta guruh xonalariga (58 895 o'rinni) 23,0 mlrd. so'mlik mebel va jihozlar yetkazib berish bo'yicha 70,3 mlrd. so'mlik shartnomalar imzolanadi.

2021-yilning 3-choragida mebel va jihozlar xarid qilish uchun oldindan to'lov sifatida 11,7 mlrd. so'm (15%) xarajat rejalashtirilib, o'tkazilgan savdolar natijasida mablag'lar iqtisod qilinganligi hamda ayrim jihozlar bo'yicha takliflar kelib tushmaganligi natijasida 10,6 mlrd. so'm avans to'lovlar amalga oshirildi. Natijada hisobot davrida belgilangan reja 90,6% bajarildi.

3. O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturiga kiritilgan muktabgacha ta'lif ob'ektlarida olib boriladigan qurilish-ta'mirlash ishlaringizining tizimli monitoringini yuritish bo'yicha.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-dekabrdagi "2021-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbilari to'g'risida"gi PQ-4936-son qaroriga muvofiq, 2021-yil Investitsiya dasturi doirasidagi muktabgacha ta'lif tashkiloti obyektlariga joriy yil 3-choragida jami 423,0 mlrd. so'm (63,4%) mablag' ajratilishi rejalashtirilib, amalda 297,5 mlrd. so'm (44,6%) mablag'lar moliyalashtirib berilib, rejalashtirilgan 179 ta obyektlardan 116 ta obyektlarda qurilish-ta'mirlash ishlari yakunlandi. 3-chorak uchun belgilangan reja 70,3%ga bajarildi.

4. Davlat muktabgacha ta'lif tashkilotlari xarajatlari o'z vaqtida moliyalashtirilishini, ularda buxgalteriya hisobi va hisoboti belgilangan tartibda yuritilishini tashkil etish bo'yicha.

2021-yilning III choragida muktabgacha ta'lif tizimi uchun davlat byudjetidan ajratilgan mablag'larning 2,1 trln. so'mi (98,7%) o'zlashtirilishi rejalashtirilgan bo'lib, amalda iyul-sentyabr oylarida ajratilgan mablag'larning 1,94 trln. so'mi (90,0 %) xarajat qilindi. Hisobot davrida mablag'larni o'zlashtirish bo'yicha belgilangan reja 91,2% bajarildi..

Mazkur mablag'lar doirasida:

- vazirlikni saqlash xarajatlariga 2,4 mlrd. so'm;
- vazirlikning markazlashgan mablag'lari doirasida mebel va jihozlar, o'quvdidaktik materiallar xarid qilishga 16,6 mlrd. so'm;

- Maktabgacha ta'limni rivojlantirish jamg'armasi xarajatlari 21,5 mlrd. so'm;
 - davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining birinchi va ikkinchi guruh xarajatlari (ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, ish haqidan ajratmalar) uchun 1,0 trln. so'm;
 - xususiy hamda davlat-xususiy sherikchilik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga subsidiya ajratish uchun 340,4 mlrd. so'm;
 - maktabgacha ta'lim sohasi uchun kadrlar tayyorlash xarajatlariga 16,4 mlrd. so'm;
 - hududiy maktabgacha ta'lim bo'linmalarini saqlash xarajatlariga 55,4 mlrd. so'm;
 - maktabgacha ta'lim tashkilotlarining IV guruh xarajatlariga 485,5 mlrd. so'm mablag' sarflandi.

5. Maktabgacha ta'lim tizimini raqamlashtirish, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etish maqsadida Internet tarmog'iga ulangan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlar ulushi oshirish bo'yicha.

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan kelishilgan rejaga muvofiq respublikadagi 5 625 ta DMTT internet bilan taminlandi hamda kelishilgan rejadan tashqari jami 5 936 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlariga yuqori tezlikdagi Optik tolali kabel kiritildi.

2021-yilning 3-choragida 350 ta (jamiga nisbatan 5,5%) davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini internet tarmog'iga ulash rejalashtirilib, amalda 326 ta (jamiga nisbatan 5,1%) davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari internet tarmog'iga ulandi. Hisobot davridagi reja bajarilishi 93%ni tashkil etdi.

6. "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali topshiriq va vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha 3-chorakda ijrosi ta'minlanishi lozim bo'lgan jami 8 ta topshiriq 100% ga bajarildi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3 ta qarorida belgilangan 3 ta topshiriq hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hududlariga tashrifi davomida berilgan 4 ta topshiriq va Prezident huzurida o'tkazilgan yig'ilish bayonida belgilangan 1 ta topshiriq ijrosi to'liq ta'minlandi.

Maktabgacha ta'lim vaziri o'rinnbosarlarining 2021-yil II yarim yilligi uchun faoliyati samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishishlarini baholashning asosiy mezonlaridan kelib chiqqan holda 2021-yil III chorak yakuni bo'yicha erishilgan natijalar tahlili yuzasidan **vazirlik Hay'ati qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining birinchi o'rinnbosari B.O.Onorboyev, vazir o'rinnbosarlari U.Sh.Begimkulov va N.X.Muslitdinovning 2021-yil II yarim yilligi uchun faoliyati samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishishlarini baholashning asosiy mezonlaridan kelib

chiqqan holda 2021-yil III chorak yakuni bo'yicha erishilgan natijalari haqidagi axborotlari **ma'lumot uchun qabul qilinsin.**

2. Maktabgacha ta'limi vaziri o'rribbosarlarining faoliyat samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishishini baholash asosiy mezonlarining 2021-yil III chorak yakunlari bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichlari

vazirning birinchi o'rribbosari B.O.Onorboyev – **89,5 foiz (qoniqarli);**

vazir o'rribbosari U.Sh.Begimkulov – **84,4 foiz (qoniqarli);**

vazir o'rribbosari N.X.Muslitdinov – **88,3 foiz (qoniqarli)**ni tashkil etganligi ko'rsatib o'tilsin.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining birinchi o'rribbosari B.O.Onorboyev, vazir o'rribbosarlari U.Sh.Begimkulov va N.X.Muslitdinovning 2021-yil II yarim yilligi uchun faoliyati samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishishlarini baholashning asosiy mezonlaridan kelib chiqqan holda 2021-yil III chorak yakuni bo'yicha olib borgan faoliyatları **"qoniqarli" deb topilsin.**

3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining birinchi o'rribbosari B.O.Onorboyev, vazir o'rribbosarlari U.Sh.Begimkulov va N.X.Muslitdinovning **2021-yil IV chorak uchun faoliyati samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishishlarini baholashning asosiy mezonlari** (keyingi o'rnlarda – vazir o'rribbosarlari faoliyati ko'rsatkichlari) **ilovaga muvofiq tasdiqlansin.**

4. Vazir o'rribbosarlari (Onorboyev, Begimkulov, Muslitdinov):

o'zlariga biriktirilgan tarkibiy bo'linmalar faoliyatining samaradorligi va natijadorligi yuzasidan **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti oldida shaxsan javobgar hamda Vazirlar Mahkamasi oldida hisobdor ekanliklariga e'tibor qaratsin;**

o'z yo'nalishlari bo'yicha vazirlik markaziy apparatining tegishli tarkibiy bo'linmalari bilan birgalikda, 2021-yil IV chorak yakuni bo'yicha **2022-yil 1-yanvarga qadar** vazir o'rribbosarlari faoliyati ko'rsatkichlari natijalarini vazirlik Hay'ati majlisida muhokama qilish maqsadida **hisobot va taqdimot materiallarini puxta va sifatli tayyorlanishini ta'minlasin;**

2021-yil 10-oktyabr va 2022-yil 10-yanvar kunlari Bosh vazir o'rribbosari huzurida vazir o'rribbosarlari faoliyati ko'rsatkichlari natijalari to'g'risida o'tkaziladigan muhokama yig'ilishlariga puxta tayorgarlik ko'rsin.

5. Vazirning birinchi o'rribbosari B.Onorboyevga Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida autsorsing usulida ovqatlantirishni tashkil etish bo'yicha tanlov komissiyasi raisi sifatida Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-iyundagi 407-son qarorining puxta va sifatli ijrosini ta'minlashda sustkashlikka yo'l qo'yanligi ko'rsatib o'tilsin.

6. Vazirning birinchi o'rribbosari B.Onorboyev:

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-iyundagi “Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog’lom ovqatlantirish tizimini takomillashtirishning qo’shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 407-sun qaroriga asosan bolalarni sog’lom ovqatlantirish tizimini takomillashtirish maqsadida tadbirkorlar o’rtasida mazkur qarorning mazmun-mohiyati va tanlovlarning to‘g‘ri tashkil etilishi bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borilishini tashkil etsin;

2022-yil 1-fevralga qadar davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog’lom ovqatlantirish tizimini takomillashtirish hamda bu borada autsorsing usulida xizmat ko’rsatuvchi tadbirkorlik subyektlariga qulayliklar yaratish maqsadida tanlov natijalari va amaliyotdan kelib chiqib, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-iyundagi 407-sun qaroriga tegishli o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan takliflar ishlab chiqilishi va Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini ta’minlasin;

bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasi past bo‘lgan 53 ta tumanda davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish bo‘yicha barcha zarur choralarini ko’rsin.

7. Vazir o‘rnbosari U.Begimkulov 2021-yilning 4-choragi davomida:

davlat budgeti mablag‘lari hisobidan kamida 14 000 ta oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini zamonaviy o‘quv-metodik qo‘llanmalar va didaktik materiallar bilan ta’minalash;

bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasi past bo‘lgan 53 ta tumanda davlat-xususiy sheriklik asosidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarini zamonaviy o‘quv-metodik qo‘llanmalar va didaktik materiallar bilan ta’minalash;

maktabgacha ta’lim tashkilotlarining 20 ming pedagoglarini qamrab olgan holda kaskad usulida pedagoglarning kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan uch bosqichli seminar-treninglarning uchinchi bosqichini, tuman (shahar) maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari uchun trenerlar yordamida kasbiy kompetensiyalarini oshirish bo‘yicha seminar-treninglar tashkil qilish;

vazirlik tasarrufidagi pedagogika kollejlaring 300 nafar o‘qituvchisi uchun «Ilm yo‘li» variativ dasturi bo‘yicha qisqa muddatli 24 soatlik o‘quv kursini tashkil etish;

pedagogika kollejlari faoliyati, o‘quvchilar davomati hamda dars mashg‘ulotlari sifatini o‘rganish ishlarini tashkil etish va o‘rganish natijalari asosida kollejlar faoliyatini takomillashtirish choralarini ko’rsin.

8. Vazir o‘rnbosari N.Muslitdinov 2021-yilning 4-choragi davomida:

2021-yil Investitsiya dasturidagi 222 ta obyektlarda qurilish-ta’mirlash ishlarini belgilangan reja-grafik asosida yakunlanishi hamda jihozlangan holda foydalanishga topshirilishini ta’minalash;

maktabgacha ta’lim tizimi uchun davlat byudjetidan ajratilgan mablag‘larning kamida 99,2 foizi o‘zlashtirilishini nazoratga olsin;

internet tarmog‘iga ulangan davlat maktabgacha ta’lim tashkilorlari ulushini kamida 6 200 taga yetkazish bo‘yicha zarur choralarini ko’rsin.

9. Nazorat-tahlil boshqarmasi (L.Berdiyeva) **har chorak yakunida** vazir o‘rinbosarlari faoliyati ko‘rsatkichlari natijalarini ko‘rib chiqish va baho berish bo‘yicha Hay’at yig‘ilishlarini tashkil etish chorasini ko‘rsin.

Bunda vazir o‘rinbosarlari faoliyati ko‘rsatkichlari natijalari to‘g‘risida tayyorlangan **hisobot va taqdimot materiallarini** Hay’at yig‘ilishi o‘tkazilishidan kamida **ikki kun oldin maktabgacha ta’lim vaziriga taqdim etsin.**

10. Kadrlar boshqarmasi (F.Boboyev) Hay’at yig‘ilishi muhokamalari yakuniga ko‘ra har bir vazir o‘rinbosariga berilgan baho natijalari bo‘yicha umumlashtirilgan ma’lumotlar boshqa materiallarni 2021-yil IV chorak yakuni bo‘yicha **2022-yil 5-yanvarga qadar Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini ta’milasın.**

11. Axborot xizmati (M.Asqarxo‘jayeva) vazir o‘rinbosarlari faoliyati ko‘rsatkichlari ijrosi bo‘yicha **har oy ommaviy axborot vositalari, shu jumladan tele va radio kanallar orqali axborot berilishini ta’milasın.**

12. Ushbu qarorning ijrosini samarali tashkil etishga tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha mas’ul va shaxsiy javobgar etib vazirning birinchi o‘rinbosari B.Onorboyev, vazir o‘rinbosarlari U.Begimqulov va N.Muslitdinov belgilansin.

13. Mazkur Hay’at qarori ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

**Hay’at raisi,
Maktabgacha ta’lim vaziri**



A.V.Shin